



IQTISODIY O'SISHDA INNOVATSION FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Xolmatov Diyorbek Usmonovich

UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY NOTM

Iqtisodiyot kafedrası assistent.

Bugungi tezkor o'zgarish va yangilanishlar davrida kutilayotgan qisqa va uzoq istiqbodagi turli vaziyatlarga har tomonlama puxta tahlil asosida oqilona yechimga tayangan holdagina moslashish mumkin. Xo'jalik faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur axborotni olish, aniq tadbir, tashabbus asosida omillarning eng maqbul kombinatsiyalarini ishga tushirish masalasi hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir. Mazkur muammo barcha sohalarda eng ustuvor ahamiyatga ega ekanligini chuqur anglagan holda faoliyat olib borayotgan sub'ektlar salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritayotgani hammaga ma'lum. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart"[1] deb belgilangan. Ushbu me'yor yurtimizdagi barcha jismoniy va huquqiy shaxslarni mavjud qonunchilik talablariga so'zsiz itoat etishga undaydi.

Bunda eng avvalo, amaldagi huquqiy mezonlarni professional darajada o'rganib borish zarur. Aynan shu munosabatlarda bir tarafdin xo'jalik ichki imkoniyatlarining oqilona tahlili muhim ahamiyat kasb etsa, ikkinchi tarafdin hamkor sub'ektlar, raqobatchilar va iste'molchilarning maqomi (pozitsiyasi) aniq asoslarda o'rganib borilishi shart. Mazkur masala juda tez va shaffof usulda, muntazam, barcha tahliliy variant va parametrlardan foydalanib yuritilishi, har qanday xo'jalik yurituvchining kun tartibidagi asosiy ish ekanini e'tirof etamiz.

Lekin bir tarafdin, bozor munosabatlari har qanday tovar va xizmatlarni yuqori sifat, keng assortiment, qulay narxlarda taqdim etish, ayni vaqtda erkin raqobatli munosabatda bo'lishni talab etsa, ikkinchi tarafdin barqarorlik kafolati sifatida, innovatsion faollik bilan ish olib borish taqozo etilmoqda.

Bu har ikki vaziyat xo'jalik munosabatlarining olg'a rivojlanish va taraqqiyotini ta'minlashning ishonchli imkoniyatini bersa-da, mutlaqo teskari mutanosiblikni tasvirlaydi. Sababi, sof raqobatli muhitdagi sub'ekt narxni sozlay olmaydi, muqobil faoliyatdan oladigan foydalar farqi nolga tengligidan o'z sohasini o'zgartirishdan manfaat ko'rmaydi. Uning moliyaviy holati yuqori fan va kapital sig'imli o'zgarishlarni birdan qabul qilishga yo'l qo'ymaydi.



Monopol ish olib boruvchi sub'ekt esa, nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki narxni ham to'la sozlash ustunligini kasb etgani bois, katta foyda ko'rib ishlashi natijasida, innovatsion faollikning barcha imkoniyatlari bo'lgani holda ham, shu tarzda faoliyat bilan ham ko'zlanganidan yuqori ko'rsatkichlariga erishgani uchun, ortiqcha "bosh og'riq" sifatida, yangiliklarni inkor etishga moyil bo'ladi. Natijada monopol korxona bozor talabidan kamroq hajmda tovar ishlab chiqarib, ma'lum miqdordagi sun'iy taqchillikni ushlab turgani holda iste'molchilar uchun boshqa tanlov muqobillari qimmat bo'lgani bois, narxni nisbatan yuqori belgilash orqali foydasini maksimallashtirishga intiladi. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 6 yanvardagi "Raqobat to'g'risida" gi qonuni 6-moddasida "Ustun mavqe tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga bog'liq bo'lmagan holda unga o'z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holatidir"[2] deb belgilangan.

Shuningdek, mazkur modda 2-xatboshisida "Tovar bozorida qaysi xo'jalik yurituvchi sub'ekt yoki shaxslar guruhi tovarining ulushi:

1) ellik foiz va undan ortiq foizni tashkil esa;

2) o'ttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda bo'lib, bunda quyidagi shartlar:

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning tovar bozoridagi ulushi kamida bir yil mobaynida barqaror bo'lib turishi;

Tovar bozorida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorda bo'lib turishi;

Ushbu bozorga yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning (raqobatchilarning) kirishiga imkoniyat bo'lishi shartlari belgilangan bo'lsa, shu xo'jalik yurituvchi sub'ektning yoki shaxslar guruhining mavqei ustun mavqe deb e'tirof etiladi"-deb ko'rsatilgan.

Mazkur ustun mavqe, ya'ni liderlik pozitsiyasida turgan shaxs (huquqiy, jismoniy), bozordagi boshqa ergashuvchi raqiblarga ma'lum turdagi tovarning minimal narxini belgilab qo'yish, ayni paytda o'z maksimal narxini raqiblar minimumidan pastroq ushlash bilan o'z xo'jalik aylanmasini tezlashtirish, tabiiyki, foydani ham maksimallashtirishga erishadi. Bunda lider narxidan arzonga tovar sotgan ergashuvchilar, javob tarzida lider sotuv narxini yana ham pastlatishi bilan "jazo" olib, sinish darajasigacha natijaga muhtalo bo'lishi mumkin.

Rivojlangan davlatlarda yuqori fan sig'imli echimlar, innovatsiyalarni tatbiq etish bilan ilg'or yutuqlarga intilgan muhitda, hattoki tabiiy



monopoliyadan ham afzalroq samarali, sog'lom raqobat bozoriga erishilmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada muqobil energiya yaratishning innovatsion echimlari ko'payib borishi natijasida, elektr-energiyasidan arzon, ham xavfsiz, qolaversa tejamkorlik bilan foydalanishning ko'plab tajribalari amal qilayotgani hammaga ma'lum.

Bizning fikrimizcha, har qanday xo'jalik yurituvchi faqatgina o'zining doimiy sur'atda yuqori innovatsion faolligi bilangina monopol bo'lishi mumkin va bu barcha manfaatdorlar uchun birdek foydali echimdir. Fikrimizning tasdig'i sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 – sonli Farmonida ham muhim maqsad sifatida global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish. Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish belgilab qo'yildi[3].

Har qanday innovatsion g'oya o'z hayotiylik davriga ega bo'lib, bu turli bosqichlarda namoyon bo'ladi (1-rasm).

1-rasm. Innovatsion g'oyaning hayotiylik bosqichlari.

1. Innovatsion g'oya yaratiladi, hech bir xo'jalik o'z faoliyatini yangiliklarsiz davom ettirishi mumkin emas;

2. Har qanday g'oya avvalo ilmiy asoslanishi shart, bu ilmiy faraz (gipoteza) dan tortib, tegishli soha doirasidagi barcha parametrlar bilan ifodalangandan so'ng ilmiy yangilik sifatida qabul qilinadi, u iqtisodiy jihatdan albatta asoslanishi shart, aks holda kutiladi, inkor etish yoki takomillashtirish variantlari ko'rib chiqiladi;

3. Ilmiy asoslangan har qanday g'oya va innovatsion echim ham hayotga tatbiq etishga yaroqli bo'lavermaydi, bu albatta iqtisodiy jihatdan asoslanishi, ya'ni vaqt, mablag', resurs va energiyani tejashi, turli xavfsizlik (ekologik, iste'mol va boshqa) talablarga mos kelishi shart. Bu shartlarning bajarilmasligi qisqa yoki uzoq istiqbolda avvalo katta iqtisodiy yo'qotishlar yana qator, turli xatarlarni kuchaytirishi, ayrim salbiy hollarda, o'nglab bo'lmaydigan jiddiy yo'qotish va zararlarni keltirib chiqarishi mumkin.

4. Yangilik, innovatsiya mahsuli odatda qimmatbaholigi, yuqori fan va kapital sig'imdorligi uchun dastavval, kichik ishlab chiqarish muhitida qo'llanadi.

5. Keyingi navbatda innovatsiya sekin-asta bilan ommalashuvi natijasida ishlab chiqarishga keng tatbiq etiladi, iste'mol doirasi maksimal darajaga



etgach, albatta pastlash, majudlari o`rniga yangi-yangi ishlanmalarning amaliyotga kirib kelishi bilan avvalgilar eskirish pozitsiyasiga ko`chadi. Bunda eskirgan moddiy va nomoddiy qiymatliklar iste`moldan chetlanadi yoki takomillashtiriladi[4].

Umumiy natija past sur`atda o`suvchan yoki o`zgarmas stsenariy asosida borishi korxonani davr talablaridan, iste`molchilar shart-sharoitlari hamda xalqaro andozalardan ortda qolishi va buning multiplikativ vaziyati jamiyat taraqqiyoti sekinlashiga va turg`unlashishishiga olib kelishi mumkin. omillar sarfiga mutanosib ravishda o`sish sur`ati esa, innovatsion faollikni rag`batlantirish uchun zarur mablag` ajratish imkonini cheklashi mumkin. Yuqori texnologik va iqtisodiy samaradorlik, mavjud omillardan salmoqli tejam va mahsuldorlik bilan natija olish imkoniyatlarini mustahkamlaydi, shuningdek, barcha omil va zaxiralar eng maqbul variantlarda ishga solinishi bilan innovatsion faollikning yangi qirralariga sharoit yaratiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, har bir bir xo`jalik yurituvchida innovatsion faollik barqarorligini ta`minlash uchun quyidagi takliflarni bildiramiz:

- 1.Yuksak mehnat va ijro intizomi amal qilishi shart;
- 2.Innovatsion faollikning noyob jihati, tarmoq ichida o`ziga xos ustunligi zarur va bu sof raqobatli muhitda ham monopol mavqe yutug`ini kafolatlaydi;
- 3.Tehnologiyalarning o`rtacha yangilanish sur`ati 5 yil bo`lgani uchun, yangiliklarni tatbiq etish darajasi yillik o`rtacha 20% dan ortiq bo`lishi;
4. Yangi ishlanma va tovar, mahsulotlar assortimentini raqobatchilarga nisbatan jadalroq oshirib borish;
- 5.Tegishli faoliyat bo`yicha tarixi va istiqboldagi o`zgarishlarni, huquqiy mezonlarni doimiy ravishda, puxta o`zlashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 09.02.2021 y., 03/21/671/0093-son).
- 2.O`zbekiston Respublikasining "Raqobat to`g`risida" gi 2012 yil 6 yanvardagi O`RQ-319-son Qonuni.
- 3.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida" gi PF-60 – sonli Farmoni.
- 4.Липсис И.В. Экономика: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению подгот. "Экономика"/И.В. Липсис. –7-е изд., стер. – Издательство "Омега-Л", 2013, - 607 с.: илл., табл. – (Высшее экономическое образование). ИСБН 978-5-370-02771-0, 144-стр.